

**O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIKDAN KEYIN ZIYORATGOHLARNING QAYTA
REKONSTRUKSIYA QILINISHIGA QARATILGAN DAVLAT SIYOSATI VA
ZIYORAT TURIZMINING RIVOJLANISHI**

Shojonov Ma'rufjon To'ymurodovich

Toshkent shahar Sergeli tumani

264-maktab o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15334127>

Annotatsiya. Maqolada istiqoldan keyingi tarixiy ziyoratgohlarning restervatsiya qilinishi va uning davlat siyosati darajasiga chiqqanligi, ziyorat turizmini rivojlantirishning muammo va istiqbollari yoritilgan.

Kalit so'zlar: turizm, tarixiy joylar, geografik joylashuv, iqlim va ob-havo sharoiti, UNESCO, ziyorat turizmi, Yo'l xaritasi, maqbaralar, masjid, madrasalar.

**STATE POLICY FOR THE RECONSTRUCTION OF PILGRIMAGE SITES AND THE
DEVELOPMENT OF PILGRIMAGE TOURISM IN UZBEKISTAN AFTER
INDEPENDENCE**

Abstract. The article discusses the restoration of historical pilgrimage sites after independence and its rise to the level of state policy, as well as the problems and prospects for the development of pilgrimage tourism.

Keywords: tourism, historical sites, geographical location, climate and weather conditions, UNESCO, pilgrimage tourism, Road map, mausoleums, mosques, madrasas.

**ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА ПО ВОССТАНОВЛЕНИЮ МЕСТ
ПАЛОМНИЧЕСТВА И РАЗВИТИЮ ПАЛОМНИЧЕСКОГО ТУРИЗМА В
УЗБЕКИСТАНЕ ПОСЛЕ ОБРЕТЕНИЯ НЕЗАВИСИМОСТИ**

Аннотация. В статье рассматривается восстановление исторических мест паломничества после обретения независимости и возведение его в ранг государственной политики, а также проблемы и перспективы развития паломнического туризма.

Ключевые слова: туризм, исторические места, географическое положение, климатические и погодные условия, ЮНЕСКО, паломнический туризм, Дорожная карта, мавзолеи, мечети, медресе.

O'zbekistonda olib borilayotgan tub islohotlar, davlat siyosati mazmuni yosh avlodni ma'naviy yetuk, intellektual salohiyatli barkamol avlod qilib tarbiyalashga qaratilgan. Amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning bosh maqsadi ham insonning moddiy va ma'naviy manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Milliy qadriyatlarni tiklash, ma'naviyatni yuksaltirish, ayniqsa sharqona odob-axloq an'alariga e'tiborni kuchaytirish shular jumlasidandir. Yurtimizda buyuk rejalar va bunyodkorlik ishlari tarixiy an'ana va tajribalarga asoslanib, aql-u idrok bilan amalga oshirilmoqda.

Buxoroi Sharifda qadimiy obidalar benihoya ko'p. Ularning har biri qadrli. Har biridan moziy nafasi kelib turganday bo'ladi. Har biri ajdodlarimizning qanday insonlar bo'lganligining tilsiz guvohidek tuyuladi. Aslida ham shunday. O'zbek xalqining tarixi yozma manbalar bilan bir qatorda osori-atiqalarimizda ham muhrlanib qolgan. Kitoblar o'qiladigan dalillar bo'lsa, yodgorliklar ko'riladigan dalillardir. Osori-atiqalar tarixini bilish ham o'tmishimiz haqidagi taassurotlarimizni boyitadi va aniqlashtiradi. Xalqni tarixiy, moddiy va madaniy merosni o'rganish bilan tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Chunki har bir kattakichik yodgorlik o'zbek xalqi tarixidagi muhim bir voqea yoki sana bilan bog'liq, yoki bo'lmasa davlat ahamiyatiga molik biror zarurat tufayli bunyod etilgan.

Buxoro olis tarixi davomida bir necha bor qaytadan bunyod etilgan. Lekin shahar o'z tarixiy ildizlaridan hech qachon uzilib ketmagan. Uning bag'rida olis o'tmishdan to bugungi kungacha qurilgan ko'plab me'morchilik yodgorliklari saqlanib qolgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, XX asr boshlarida ular soni 550 ga yaqin bo'lgan. Salkam bir asrga yaqin vaqt ichida sho'ro dahriylarining tariximizga nisbatan buzg'unchilik munosabati o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Bugungi kunga kelib, shaharda 300 ga yaqin yodgorliklar saqlanib qolgan. Mustaqillik yillarida Buxoroni zamonaviy va milliy shaharsozlik asosida qayta qurish, obodonlashtirish hamda bunyodkorlik ishlari ana shu yodgorliklarni asl tarixiy holida tiklashdan, ta'mirlashdan boshlandi. Dastlab Bahovuddin Naqshband, Sayyid Amir Kulol, Chor Bakr kabi tarixiy majmualar asl tarixiy asosida qayta qad rostladi. Keyin shahar bag'ridagi Chashmai Ayub, Dahmai Behishtiyon, Hazrati 7 Abu Xafs Kabir, Shayx Abu Bakr Gulobodiy, Xoja Ismatulloh Valiy kabi ulug' allomalar nomlari bilan bog'liq ziyoratgohlar, maqbaralar, masjid va madrasalar asl holida qayta tiklanib, obod qilindi. Buxoroda har qadamda tarix bilan yuzlashasiz. Uning har bir obidasi, madrasa, masjidi, minorasi, hovuz, xiyoboni, bozor va ko'chalari o'tmish guvohlari sifatida namoyon bo'ladi.

O'z davrining hayotiy ehtiyojlari tufayli bunyod etilgan bu hayratomuz inshootlar, imoratlarda keksa tarix bilan birgalikda ajdodlarimizning yuksak aql-zakovati, donishmandligi, ilmiy salohiyati, dunyoviy madaniyati, g'aroyib san'ati ham o'z ifodasini topgan. Darhaqiqat, mamlakatimiz mustaqillikka erishgach milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish, madaniy meros, ayniqsa tarixiy-me'moriy obidalarini asrash, ularni kelgusi avlodga etkazish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda Buxoroda 660 ta moddiy-madaniy meros ob'ektlari ro'yxatga olingan bo'lib, 231 tasi arxeologiya ob'ektlari, 364 tasi arxitektura yodgorliklari (8 ta maqbara, 47 ta masjid, 14 ta karvonsaroy, 39 ta madrasa), 19 tasi monumental san'at asarlari, 22 tasi arxitektura ansambllari va 24 tasi diqqatga sazovor joylardir. Shulardan 331 tasi Respublika ahamiyatidagi va 329 tasi mahalliy ahamiyatdagi moddiy-madaniy meros ob'ektlari hisoblanadi. Buxoro shahrida 300 dan ortiq hovuz bo'lganligi XIX asr hujjatlarida qayd qilingan. Chashmadek qayta ko'z ochgan Buxoro hovuzlari esa asrlar osha shaharga ko'rk-u tarovat baxsh etaveradi.

Buxoro tarixiy shahar sifatida turizm sohasida katta salohiyatga ega. Mustaqillikdan keyin shaharning tarixiy obidalarini restavratsiya qilindi, infratuzilma yaxshilandi va xalqaro turistlarni jalb qilish uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Buxoro UNESCOning madaniy meros ro'yxatiga kiritilgan shahar sifatida yanada e'tibor qozondi. Turizm sohasi rivojlanishi natijasida hudud iqtisodiy jihatdan taraqqiy etdi va yangi ish o'rinlari yaratildi. Mustaqillik yillarida Buxorodagi ijtimoiy holat sezilarli darajada yaxshilandi.

Hozirgi vaqtda har bir davlatning tarixiy joylariga nisbatan ziyorat turizmi juda rivojlangan. Bu ayniqsa O'zbekistonda ham keng rivojlangan. Bu avvalo Buxoro, Xiva, Samarqandda juda yuksak darajada rivojlanmoqda.

Tashrif buyuruvchilar uchun shart-sharoitlar yaratilishi rejalashtirilgan turizm salohiyati yuqori bo'lgan madaniy meros obyektlariga —Abdullo Norinjiy ziyoratgohi, Shayx Jalil bobo ziyoratgohi, Bibi seshanba ziyoratgohi, Xoja Maxmud Anjir Fag'naviy ziyoratgohi, Shohi-Zindal majmuasi, Xoja Doniyor maqbarasi, Amir Temur maqbarasi, Xoja Axror Vali majmuasi, Hazrat Xizr masjidi, Xazrati Dovud g'ori ziyoratgohi, Maxdumi A'zam majmualarini misol qilishimiz mumkin.

Shunga o'xshash ziyoratgohlar ro'yxati Respublikamizda 50 dan ortiq. Ziyoratgohlarda amalga oshiriladigan bir qancha chora-tadbirlar mavjud: ziyoratgohlarga olib boruvchi yo'llarni joriy ta'mirlash; viloyat markazidan va boshqa yirik aholi punktlaridan ziyoratgohga olib keluvchi yo'l ko'rsatgich va axborot belgilarini o'rnatish; sayyohlarni ziyoratgohga avtotransport

vositalarining navbatlar hosil qilmasdan kirib-chiqishi uchun qulay harakatlanish rejasini ishga tushirish; transport vositalari (avtomobil va avtobus) uchun alohida avtoturargohlar tashkil etish; ziyoratgohlarda navbatlar va tirbandliklar, shuningdek, favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda, obyekt bo'ylab ziyoratchilar oqimini taqsimlash rejalarini ishlab chiqish va yo'lga qo'yish; ibodat marosimlarini uyushtirish jarayonlarida (namozlar) ziyoratchilarni joylashtirish sxemasini ishlab chiqib amalga oshirish; oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida ustuvor ravishda ziyoratgoh atrofida oilaviy mehmon uylarini tashkil qilish uchun 30 mln so'mgacha kreditlar taqdim qilinishini yo'lga qo'yish; ziyoratgohda sanitar-gigiyenik talablarga amal qilgan holda hojatxona va qushxonalarni tartibga keltirish choralarini ko'rish; ziyoratgohlarda qo'shimcha xizmat turlari (ovqatlanish va esdalik sovg'alarini sotish shoxobchalari, ziyorat amallarini amalga oshirish uchun lozim bo'lgan buyumlar savdosi)ni tashkil qilish va kengaytirish; ziyoratgohga tashrif buyurganlar uchun shart-sharoitlar (o'rindiqlar, kutish xonalari va maydonlari, onalik va bolalik xonasi, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay bo'lgan sharoitlar, salqin ichimliklar va boshqa) yaratish; ziyoratgohdagi ziyorat tartibi va odobi haqida qo'llanmalar ishlab chiqish va ziyoratgohlarga o'tkazish choralarini ko'rish; ziyoratgohlar haqidagi bosma va elektron targ'ibot materiallarini ishlab chiqish va keng targ'ib qilishdan iborat.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori, Toshkent, 24 fevral, 2021.
2. Mirziyotov I. Diniy bagrikenglik va marifat. Hidoyat , T. 2001.
3. Qayumova S, Unutilgan qadriyatlar, Buxoro 1993
4. Qayumova S, S Buxoriy, Maftunkor qadriyatlar, Buxoro 2007
5. Rasulov M. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda tarixiy va madaniy yodgorliklarning muhofaza qilinishi va tiklanishi
6. www.lex.uz.(O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi)
7. www.ziynet.uz.(Milliy ta'lim portali)
8. www.edu.uz.(O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy portali)
9. www.mustaqillik.uz.(Mustaqil O'zbekiston Solnomasi portali)